VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 17 Scientific Journal

ERUS

Educational Research in Universal Sciences

Google Scholar RESEARCHBIB ACADEMIC RESOURCE INDEX doi digital object identifier DRJI Directory of Research Journals Indexing

Scientific Journal Impact Factor : 5.564

ISSN: 2181-3515

Economics
Exact Sciences
Natural Sciences
Medical Sciences
Arts and Culture
Technical Sciences
Philological Sciences
Pedagogical Sciences
Psychological Sciences
Social Sciences and Humanities

zenodo OpenAIRE ADVANCED SCIENCES INDEX PKP|INDEX

2023/12

ZAMONAVIY TA'LIMDA "4 K" YONDASHUVI AMALIYOTINI SINGDIRISHNING BA'ZI MASALALARI

Aslanova Nozima Khakimovna
Buxoro viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi v.b. dotsenti, p.f.b.f.d (PhD).

ABSTRACT

Today's education supports the practice of collecting free ideas and opinions expressed by learners on a small problem, and through them, renewing the methods to arrive at solutions. The article presents issues of education renewal.

Keywords: education, support, learner, problem, method, arriving, solution.

Hozirgi kun ta'limi biror kichik muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan usullarni yangilash amaliyotini qo'llab quvvatlaydi. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari bilimini diagnostikalashning PIRLS, TIMSS, PISA kabi dasturlariga ishtirok etish zarurati yuzaga keldi. Mamlakatimiz ta'limining jahon standartlari talablariga javob berishi uchun zamonaviylashtirilgan usullarni joriy etish muammosi bugun yechimini topishga qaratilgan eng zarur masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darslarni tashkil etishning innovatsion usullarining yozma va og'zaki shakllarini qo'llash imkoniyatlari mavjud. Zamonaviy usullarning og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini mustaqil bayon etishi tushuniladi. Bunda ta'lim oluvchilarning aksariyati o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Ammo XXI asr ko'nikmalari sifatida ta'lim jarayonida o'quvchilar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning asosi sifatida faol fikrlash strategiyalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda o'quvchilar bilan jamoaviy, kichik guruhda, juftlikda hamda individual shakllarda ishlash asosida samarali fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning taqlidiy, tanqidiy, kreativ ko'rinishlarini qo'llash amaliyotini ta'lim jarayoniga olib kirish masalalariga e'tibor qaratilishi zarur.

Yozma shaklda esa o'quvchilar oldiga qo'yiladigan muammolarni hal etishning turli yo'llaridan foydalaniladi. Beriladigan savollarga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalar, plakatlar yoki doskaga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga mahkamlanishi ham mumkin. Interfaol usullarning yozma shaklida kooperativ tarzda

turli javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyatlari ham qo‘lga kiritiladi. Muammolarni hal etishning bunday yozma usullarni to‘g‘ri va ijobiy qo‘llash o‘quvchi shaxsini erkin, ijodiy va kreativ (nostandart) fikrlashga o‘rgatadi hamda muammolarni hal etishning eng maqbul yechimlarini topish yo‘llari o‘zlashtiriladi.

Nostandart yechimlarni topishga yo‘naltirilgan jarayonlarning ijobiy va xarakterli jihatlari nihoyatda ko‘p. Bunda dastavval, ta’lim oluvchilar diqqatini jalb etish imkoniyati qo‘lga kiritilsa, ikkinchidan, o‘quvchilar o‘rtasida muloqot qilish va munozara olib borish, ya’ni kollaborativ madaniyat ham shakllanadi. Shuningdek, ta’lim oluvchilarda o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma yoki grafik ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Bildirilgan fikrlarning baholanmasligi esa ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalarning erkin shakllanishiga olib keladi hamda ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kun zamonaviy ta’limida “4 K” yondashuvini dars jarayoniga singdirish o‘ziga xos dolzarblikka ega. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab quyidagi jarayonlarda amalga oshirilishi taklif etiladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu usullar dars mavzusiga kirish qismida;

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsadida - yangi mavzu bilan bog‘lab o‘tish qismida;

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida- mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida ham amalga oshiriladi.

“4 K” modelini qo‘llash jarayonida quyidagi asosiy shart va qoidalarga e’tibor berish ko‘zda tutiladi:

1. Guruh ichida o‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi;

2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi;

3. Har bir ta’lim oluvchi ishtirok etishi shart.

“4 K” ko‘nikmalari quyidagi tuzilma asosida shakllantiriladi:

- avval muammoli savol qo‘yiladi
- barcha guruh a’zolarining fikr va g‘oyalari tinglanadi va to‘planadi
- fikrlar guruhlanadi
- aniq, nostandart va eng maqbul javoblar tanlab olidadi

“4 K” ko‘nikmalari (kommunikatsiya, kreativ fikrlash, kooperatsiya, kritik (tanqidiy) fikrlash)ni shakllantirishning taxminiy tuzilma va bosqichlari quyidagicha:

1. O‘quvchilarga muammo (misol, masala, savol) beriladi va ularga shu

masala bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohazalar) bildirishlari so‘raladi;

2. O‘quvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. O‘quvchilarning fikr-g‘oyalari to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javoblar tanlab olinadi.

“4 K” ko‘nikmalarini shakllantirishning afzalliklari:

• natijalar muhokama etilmasligi ta’lim oluvchilarda kreativ va (kritik) tanqidiy fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

• ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi va kooperativ va kollaborativ ko‘nikmalar shakllanadi;

• fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

• ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

• ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“4 K” ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi tomonidan muammo yoki savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik turli noqulayliklarga sabab boladi.

“4 K” ko‘nikmalarini shakllantirishda kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir- biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoni qo‘lga kiritiladi. Shuningdek, ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni muammo yechimiga jalb eta oladi va kommunikativ, kollaborativ, kreativlik va kritik fikrlash jarayonlarini baholay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Azizxo‘jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O‘quv qo‘’llanma – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006.
2. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн.пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.
3. Канторович Л. Ситемний анализ и некоторые проблемы научно-технического прогресса. М.: Наука, 1986.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma.– T.:O‘qituvchi, 2004.

85
Тажибаева , С. Т. (2023). УНИВЕРСИТЕТДА ЛОЙИҲАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН МЕНЕЖМЕНТ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 428–431. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5217
86
Xurazova , B. A. qizi. (2023). NOTIQLIK SAN'ATI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 432–434. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5218
87
Nizomova, Z. F. qizi, & Adizov, B. R. (2023). TARBIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 435–441. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5220
88
Shermetov , A. I. (2023). AGRESSIYA MUAMMOSINING DIAGNOSTIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 442–446. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5221
89
Ganjiev , S. J. (2023). KASBIY KOMPETENTLIK USLUBLARNI ISHLAB CHIQISHDA XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBALARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 447–451. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5222
90
Shukurov , A., & Xakimov , S. (2023). MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MUDOFAA DOKTRINASINING STRATEGIK JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 452–458. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5223
91
Komilov , M. A. o'g'li, Komilova , M. G. qizi, & Usmonov , S. (2023). SPEKTAKLLARDA XATTI-HARAKAT MASALASI. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 459–462. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5224
92
Narziyeva , M. S. (2023). O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB YO'NALISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 463–465. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5225
93
Aslanova , N. K. (2023). ZAMONAVIY TA'LIMDA "4 K" YONDASHUVI AMALIYOTINI SINGDIRISHNING BA'ZI MASALALARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 466–468. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5226